

Bekmuratov Arziwbay KojamuratovichAjiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
Umumiy pedagogika kafedrası katta o'qituvchisi**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING PROGNOSTIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK YONDASHUVLAR**

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirishning dolzarbligi, ahamiyati, muhim yo'nalishlari haqida ma'lumot berilgan. Bo'lajak o'qituvchilarda prognozlash kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari, imkoniyatlari, usullari, yondashuvlar va ularni qo'llash imkoniyatlari ochib berilgan. Prognozlash kompetensiyasi shaxsning intuitsiyasi, tahliliy fikrlash layoqati, kreativligi va refleksiv ko'nikmalari bilan bog'liq holda rivojlantirilishi lozimligi ilmiy asoslangan.

Tayanch so'zlar: bo'lajak o'qituvchi, kasbiy kompetensiya, prognozlash, pedagogik usullar, prognozlash komponentlari.

INNOVATIVE PEDAGOGICAL APPROACHES TO THE FORMATION OF PROGNOSTIC COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS

Abstract. This article provides information on the relevance, importance, and important directions of professional development of future teachers. Pedagogical conditions, possibilities, methods, approaches, and possibilities of their application for the formation of forecasting competence in future teachers are revealed. It is scientifically substantiated that forecasting competence should be developed in conjunction with a person's intuition, analytical thinking ability, creativity, and reflexive skills.

Keywords: future teacher, professional competence, forecasting, pedagogical methods, components of forecasting.

Kirish. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayoniga ta'sir etuvchi pedagogik omillar, shart-sharoitlarni aniqlash talabalarida prognozlash kompetensiyasini muvaffaqiyatli shakllantirish imkonini beradi. Bu jarayonning ichki shart-sharoitlari sifatida talabalarning o'z o'ziga nisbatan talabchanligi, erishilgan natijani chegara sifatida qabul qilmasligi, o'z o'zini tanqidiy baholay olishi, tashqi shart-sharoitlar sirasiga esa bo'lajak o'qituvchining turli faoliyat turlariga jalb etilishi, yuqori murakkablik darajaga ega bo'lgan yangi pedagogik vazifalarga yechim topa olishida namoyon bo'ladi. Shu bilan bir qatorda oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish shart-sharoitlari makon, zamon, kasbiy hamda ijtimoiy omillar bilan belgilanadi.

Yuqorida ta'kidlangan omillar aksariyat hollarda pedagogik jarayonni murakkablashtirish xususiyatiga ega. Shuning uchun ham bo'lajak o'qituvchilarning prognozlash kompetentligini shakllantirishga ta'sir etuvchi bir qator shart-sharoitlarni alohida ajratib ko'rsatishga muvaffaq bo'ldik:

1. Talabalar uchun xavfsiz kasbiy rivojlantiruvchi pedagogik muhit yaratish. Mazkur muhitning asosiy sub'ekti bo'lajak o'qituvchilardir. Ma'lumki talabalar pedagogik, shu jumladan prognozlash kompetensiyasini shakllantirishga kuchli ehtiyoj sezadilar. Talabalar uchun xavfsiz kasbiy rivojlantiruvchi pedagogik muhit deganda, psixologik bosimlardan xoli, talabalar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan, insonparvarlik prinsipi ustuvor bo'lgan, talabalarning emotsional-shaxsiy hamda kommunikativ xususiyatlarida aks etuvchi o'zaro ta'sir muhiti tushuniladi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, talabalarni kasbiy rivojlantiruvchi muhitning muhim belgilari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini takomillashtirish uchun optimal o'quv materiallari hamda samarali psixologik vaziyatlar, o'zaro muloqot muhitini yaratish;
- pedagogik-psixologik tayyorgarlik jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish;
- professor-o'qituvchilarni pedagogika turkum fanlarini o'qitish sifati va samaradorligini ta'minlashga yo'naltirish;
- kasbiy kompetenlik, shu jumladan prognozlash kompetensiyasining rivojlanishi u ma'naviy-psixologik jihatdan sog'lom muhit yaratish;
- bo'lajak o'qituvchilarga kasbiy mahoratni egallashlari uchun qulay vaziyatlarni vujudga keltirish;
- talabalarning axborot olish, ular ustida ishlash imkoniyatini kengaytirish;
- pedagogik bilimlarni boyitishning samarali mexnizmalari tizimini ishlab chiqish;
- talabalarning kasbiy bilimlarni egallash faoliyatini qo'llab quvvatlash va uning kasbiy rivojlanishi uchun ijtimoiy pedagogik muhitni vujudga keltirish;
- bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil bilim olishlari uchun zarur imkoniyatlarni ta'minlash.[1]

Talabalar uchun xavfsiz kasbiy rivojlantiruvchi pedagogik muhit yaratish ularda istiqbolda samarali faoliyat ko'rsatishlari hamda prognozlash kompetensiyasini namoyon etishlari uchun alohida ahamiyatga ega.

2. Bo'lajak o'qituvchilarning prognozlash kompetensiyasini egallash jarayonlarini pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash. Pedagogik jihatdan qo'llab quvvatlashning nazariy asoslarini shakllantirishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvga tayanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, kasbiy rivojlanish shaxsning kasbiy shakllanish jarayonida turli innovatsiyalarni tanlash, ularni qo'llash va o'zlashtirish qobiliyatiga egalikdir. Bo'lajak o'qituvchilarning prognozlash kompetensiyasini egallash jarayonlarini pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash deganda talabalarda o'z rivojlanish yo'nalishlarini anglash va o'z harakatlari uchun mas'uliyatni his qilishga ko'maklashish nazarda tutiladi. Kasbiy rivojlanishning turli variantlarini tanlash imkoni tug'ilganida, talabalarda muammoli vaziyatlarda o'quvchiga yordam ko'rsatish, ularning kasbiy rivojlanish traektoriyalarini birgalikda loyihalash va prognozlash ko'nikmalarini tizimli tarzda shakllantirishga e'tibor qaratish lozim.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishini psixologik qo'llab-quvvatlash konsepsiyasiga tayangan holda bo'lajak o'qituvchilarning prognozlash kompetensiyasini shakllantirish bilan bog'liq quyidagi vazifalarga yechim topish zaruriyati kuchaymoqda:

- kasbiy rivojlanishning muayyan bosqichlari, ya'ni boshlang'ich adaptatsiya, professionallashuv kabilarni axborotli analitik qo'llab-quvvatlash;
- bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy rivojlantirishning ayrim bosqichlarini rejalashtirish va loyihalash;
- bo'lajak o'qituvchilarning individual rivojlanish traektoriyalarini aniqlash va ularning reflektiv faoliyati hamda prognozlash kompetensiyalarini mavjud darajalarini aniqlash va rag'batlantirish;
- bo'lajak o'qituvchilarda prognozlash kompetensiyasini shakllantirish jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash va professor-o'qituvchilarga maqsadli metodik yordam ko'rsatish;
- bo'lajak o'qituvchilarda ilmiy tadqiqot faoliyati va prognozlashga oid pedagogik mahoratning shakllanishiga muntazam yordam ko'rsatish;
- bo'lajak o'qituvchilarda o'zining prognozlash kompetensiyasini tizimli rivojlantirib borishi uchun dars ssenariylarini tuzish va shartli tarzda rejalashtirishga erishish;
- talabalarda kasbiy rivojlanish jarayonidagi qiyinchiliklarni muvaffaqiyatli bartraf etishlari uchun muntazam yordam ko'rsatish;
- kasbiy faoliyat ko'nikmalarni egallashdagi deformatsiyalar, ya'ni turli sindromlar, charchoq, rutinlikning oldini olish, shuningdek, kasbiy rivojlanishning inqiroz davrida talabalarga pedagogik yordam ko'rsatish;

- bo'lajak o'qituvchida prognozlash kompetensiyasining shakllanishidagi ijobiy o'zgarishlarni muntazam kuzatish va tahlil qilish.[2]

Bo'lajak o'qituvchilarda prognozlash kompetensiyasini shakllanishini yedagogik qo'llab quvvatlash natijasida ularning umumiy kasbiy kompetentlik darajasi hamda uni tashkil etuvchi komponentlarning rivojlanishiga xizmat qiladi.

3. Bo'lajak o'qituvchilarda prognozlash kompetensiyasini shakllanishini jadallashtirish. Bo'lajak o'qituvchining prognozlash kompetensiyasini dorzarblashtirish, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularning faoliyat ko'rsatish xususiyatari belgilanadi. Bo'lajak o'qituvchi har doim o'zini mustaqil va o'z o'zini boshqaruvchi shaxs sifatida namoyon bo'lishi kerak. Uning shaxsiy-kasbiy tajribalari o'quv va amaliyot davrida rivojlanadi. Bu esa ularning ta'lim jarayonida o'z o'zlarini tahlil qilish va o'z oldiga maqsad qo'yish ko'nikmalarining shakllanishiga asos bo'ladi. Bo'lajak o'qituvchilarda prognozlash kompetensiyasini shakllantirish natijasida ularda quyidagi kasbiy-shaxsiy sifatlar tarkib topadi:

- pedagogik faoliyatga nisbatan ijobiy motivatsiya;
- pedagogiklik kasbiga qadriyatli munosabatda bo'lish, o'z ishga ichki mas'uliyat bilan ijodiy yondashish;
- o'z o'zini baholash va refleksiyalash ko'nikmalariga ega bo'lish;
- pedagogik dunyoqarashning barqarorlashuvi, qat'iyatlilik, o'z prinsipiga sodiqlik, oliy ta'lim muassasasida ijtimoiy-siyosiy faollik ko'rsatish;
- axloqiy poklik, rostgo'ylik, halollik, mehnatsevarlik, kamtarlik, munosib xulq-atvorga ega bo'lish;
- ishchanlik, amaliy ko'nikmalarga egalik, hozirjavoblik, zehnilik, yangilik va ilg'or g'oyalarni o'z vaqtida ilg'ab olish va qo'llab-quvvatlash qobiliyati;
- intizomlilik, mas'uliyatlilik, maqsadga intiluvchanlik, tashabbuskorlik, sabr-toqat va o'z fikrini jamlay olish ko'nikmasiga egalik;
- taktik muloqot madaniyati, yuqori talabchanlikni g'amxo'rlik, adolat va shaxsiy qadr-qimmatga hurmat bilan munosabatda bo'lish kunnikmasi;
- pedagogik tafakkur va pedagogik mahoratga bo'lish.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikning tarkibiy qismi sifatida prognozlash kompetensiyasiga ega bo'lishlarini ta'minlash maqsadida quyidagi sifatlarni shakllantirishga e'tibor qaratildi:

- oliy pedagogik ta'limning yangi mazmuni asosida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy dunyoqarash, qadriyatli yo'nalish va pedagogik e'tiqodni shakllantirish, ya'ni o'z faoliyatini demokratiya, insonparvarlik, metodik mahoratning optimal natijalariga erishishni nazarda tutgan holda tashkil etishlarini ta'minlash;
- kreativ faoliyat motivlarini faollashtirish, shunga ko'ra kasbiy bilimlarni bilish, o'zining layoqatlarini namoyon etish, ijodiy faoliyatga bo'lgan ehtiyoj ko'lamini kengaytirish kabilarga e'tibor qaratish;
- pedagog uchun zarur bo'lgan barqaror sifatlar: empatiya, refleksiya, tolerantlik, muloqotchanlik, pedagogik takti shakllantirish;
- tanqidiy fikrlash uslublarini rivojlantirish;
- pedagogik texnika, ijrochilik mahorati va artistlik ko'nikmalarining rivojlanishiga e'tibor qaratish;
- o'z o'zini anglash va o'zining imkoniyatlarini namoyon etish ko'nikmalarini shakllantirish;
- shaxsiy pedagogik ishonch va nuqtai nazarlarni shakllantirish.[3]

Ushbu vazifalarni amalga oshirish natijasida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligi tarkibida prognozlash kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

4. Talabalarning pedagogik mahorat, ya'ni akmeni egallash jarayonini mustaqil boshqarish ko'nikmalarini faollashtirish. Pedagogik tayyorgarlikning muhim tarkibiy qismi sifatida talabalarning o'z o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish pedagogikaning yetakchi masalasi hisoblanadi. Chunki o'zini o'zi boshqarish kasbiy rivojlanishning asosiy asosiy omilidir.

O'zini o'zi boshqarish pedagogik tizimning boshqariladigan, dinamik jarayoni bo'lib, bu jarayonda bo'lajak o'qituvchi o'z o'zini tarbiyalash, mustaqil bilim olish, o'z faoliyatini tashkil etish va o'z o'zini nazorat qilish bosqichlarini o'taydi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik faoliyatni egallash jarayonida o'z o'zini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

- oliy pedagogik ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatadigan professor-o'qituvchilarning pedagogik harakatlari sifatini ta'minlash maqsadida ulardagi kasbiy mahoratni rivojlantirish, oliy ta'lim muassasasi professor-o'qituvchilari oldiga qo'yilayotgan talablarning mazmun mohiyatini chuqur anglashlariga erishish;

- o'z pedagogik faoliyatida namoyon bo'ladigan kasbiy mahoratini qiyosiy hamda tanqidiy baholashga erishilari;

- o'z o'zini pedagogik jihatdan rivojlantirishni rejalashtirish va talabalar bilan ushbu yo'naltirilgan hamkorlikka kirishish;

- bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahorati, ya'ni akmesini rivojlantirish metodikalarini izchil qo'llashlariga erishi;

- talabalarining pedagogik tajribalarini o'rganishlari, tahlil qilishlari va o'z faoliyatlariga tatbiq qilishlari uchun qulay sharoit yaratish;

- pedagogik jarayonda talabalar uchun o'za o'zini takomillashtirish va boshqarishga yo'naltirilgan faol, maqsadli o'quv harakatlarni amalga oshirish. [4]

Xulosa. Shu tariqa bo'lajak o'qituvchilarda prognozlash kompetensiyasini shakllantirish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, ularning samaradorlik darajasini muntazam refleksiylash talab etiladi. Kompleks tarzda yaratilgan pedagogik shart-sharoitlar bo'lajak o'qituvchilarning prognozlash kompetensiyalarini shakllantirish imkonini beradi.

Fodalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mitina L.M., Mitin G.V., Vostokova J.I. Psychological analysis of promising research on the resource-prognostic determination of personal and professional development of a teacher // *Perspektivy nauki i obrazovaniya*. – 2024. – №. 4 (70). – S. 533-543.

2. Royston P. et al. Prognosis and prognostic research: developing a prognostic model // *Bmj*. – 2009. – T. 338.

3. Сафарова Р.Г. Механизмы формирования системы высшего педагогического образования на основе культурологического подхода. *Xalqaro, milliy va hududiy o'lchamlarda zamonaviy pedagogik ta'lim» Ifte-2025: Uzbekistan. Pedagogik ta'lim bo'yicha xalqaro konfrensiyasi maqolalar to'plami 206-211-b.*

4. Stankin M.I. Protsess usvoeniya znaniy. // *Otkrytaya shkola*. – 2001. – №6. – S. 24-27.

5. Chernyaeva A. V., Shagina Y. V. Value orientations nominating the future teacher as an object of prognostic description // *Evidence-based education studies*. – 2024. – №. 1. – S. 45-53.

6. Xoliqov A. A. X-72 Pedagogik mahorat. Darslik / A. A. Xoliqov; 0 6zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, -420 b.